

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA
TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7806427>

Qobulov Nodirbek Orifjonovich

Harbiy qismxizmatchisi

Annotatsiya: *Yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida oila, mahalla va maktab hamkorligi, ta'lrim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega, o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *hamkorlik, jamiyat, mustahkam, barkamol, tashabbus, konsepsiya, temperament, haqqoniylik.*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И
ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ВОИНСКОГО
ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ**

Кабулов Нодирбек Орифджонович

воинская часть, военнослужащий

Аннотация: *Большое значение в формировании будущей молодежи и детей как самостоятельных и свободных личностей имеют семейно-общественное и школьное сотрудничество, всестороннее совершенствование образовательного процесса.*

Ключевые слова: *сотрудничество, общество, сильное, гармоничное, инициатива, концепция, темперамент, честность.*

**PSYCHOLOGICAL FACTORS OF COOPERATION OF FAMILY AND
EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE FORMATION OF MILITARY
PATRIOTISM IN YOUTH**

Kabulov Nodirbek Orifjonovich

Military unit, serviceman

Abstract: *Family, community and school cooperation, comprehensive improvement of the educational process are of great importance in the formation of the future youth and children as independent and free individuals.*

Keywords: *cooperation, society, strong, harmonious, initiative, concept, temperament, honesty.*

KIRISH

Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri - vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdirga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqga bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etadi. Vatanparvarlik-bu Vatanga muhabbatdir. Muhabbatsiz yurakka esa, Vatan sig'maydi. Vatan dardi, Vatan muhabbati bilan yashagan yurakgina insoniyatni sevadi. Vatanparvarlik-bu Vatan ozodligi, ota-onas, el-yurt, jigargoshalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrorlari bilan puxta quronish, bu iroda muayyan bilimga ega bo'lishdir. Vatanparvarlik-bu har qanday dushmandan o'z yurtini himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham fido etishdir. Vatanparvarlik esa jumlai jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg'usidir. Ma'lumki, har bir davr va avlod hayotda o'ziga xos ma'naviy meros yaratadi. Ma'naviy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi. Ma'naviy meros muallifi xalq ommasi hisoblanadi. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z tarixini va hayot merosini yangidan tiklamoqda. Hayotimizning har bir davri qaytadan ko'rib chiqilmoqda, jadidchilik harakatining asl ma'nosini ochib berilmoqda. Cho'lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning g'oyalari xalqimizga yetkazilmoqda. Darhaqiqat, xalqimiz azal-azaldan insonning hayotiy fazilatlarga boy bo'lgan. Vatanparvarlik tarbiyasi mustaqil O'zbekiston oldida turgan zarur vazifalardan biridir. Chunki sobiq sho'ro tuzimi paytida bu haqda o'ylash ham, amalda bajarish ham mumkin emas edi. O'z kelajagini yaratayotgan O'zbekiston o'z vatanparvarlarini, o'z himoyachilari tarbiyalab etishtirish, o'z hududlarining daxlsizligini ta'minlashi lozim. Harbiylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanishi lozim. Ayniqsa xalqimiz tarixi, bosib o'tgan yo'li, undagi tarixiy voqealar namuna bo'la oladi.

Tadqiqot Materiallari Va Metodologiyasi

Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim - tarbiya o'chog'i bu oila va maktabdir. Oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala hisoblanib, bu ota-onadan odob, bilim, tarbiyani talab qiladi. Tarbiya ishi ta'lim muassasalari bilan oila hamda mahalla hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas'uliyatli vazifadir. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun birinchi navbatda oila mustahkamligini ta'minlashi lozim. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Oiladagi ta'lim - tarbiyani to'ldiruvchi bu maktab va mahalla hisoblanadi. Ta'lim muassasalari, oila va mahalla o'zaro hamkorlikda ishlashi bola tarbiyasi, ayniqsa uning barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Mustahkam oila yili" davlat dasturini amalga oshirish jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalari o'rtaqidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, har tomonlama sog'lom, yetuk va barkamol yoshlarni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda "Oila, mahalla, ta'lim muassasalari" hamkorligi oilalardagi axloqiy muhitni yaxshilab, ularda tarbiyalanayotgan farzandlarni zamon talablari asosida hamda milliy qadriyatlarni ruhida tarbiyalashda muhim rol

sanalmoqda. Inson bolasi uchun oila asosiy go'sha, hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh. Uning xosiyati fazilatlarini, odam jismongan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini oila bilan bog'lasak, turmush kechirishdagi hissasi juda ham ulug' ekanini his qilamiz. Oila - jamiyatning bir bo'lagi hisoblanib, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo'lar ekan jamiya ham tez rivojlanadi.

Tadqiqot Natijaları

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Kontseptsiyasi (keyingi o'rnlarda - Kontseptsiya) - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. Ona Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilmu ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish va shu tariqa O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Kontseptsiyaning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Muhokama

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va Konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiglashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad - yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

- yoshlarni milliy g'oya va O'zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismongan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekan haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jahbalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida islohotlar hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog`liq holda amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning barkamol bo`lib yetishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta`lim muassasalari alohida o`rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg`urish, sog`lom, barkamol insonni voyaga yetkazishga intilish halqimizga xos milliy xususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo`lib voyaga etadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov yoshlarni ma`naviy-ahloqiy tarbiyalashda oila, ota-onasi hal qiluvchi o`rin turishga e`tibor berib shunday degan edi: "Bola tug` ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an`analari, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. eng muhim, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o`zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlarini bor. Ular: yaxshi nom qo`yish, yaxshi muallim qo`lida topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, boshini ikki va uylijoyli qilish". Oilaviy ma`naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a`zolarining muayyan ma`naviy dunyoga ega bo`lishi ular o`rtasidagi munosabatlari asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma`naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona an`analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma`naviy olami o`zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma`naviy qadriyatlarni o`zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday qadriyatlarning oilada e`zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma`naviy muhitni yaratadi. Bu esa o`sib kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o`ta muhimdir. Shu asosda har bir oila a`zosining iste'dodi va salohiyati to`la ro`yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma`naviyat maskani sifatida shakllanib boradi. Oila tarbiyasi - bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma`rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o`taydi. Har bir ota-onasi o`z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta`minlaydigan hamma xususiyatga to`liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta`kidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O`z bolangni o`zing asra" degan da`vat faqat quruq shior bo`lib qolmasdan, har bir ota-onasi, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya`ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas`uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo`yish vaqt keldi, deb o`ylayman". Haqiqatan ham har bir ota-onasi o`z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma`naviy sog`lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o`zi tarbiyalangan bo`lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til

o`rganish, kitob o`qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o`qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-onasi o`z mas`uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim. Oilada sog`lom muhit mayjud bo`lgandagina, ularda har tomonlama sog`lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog`lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo`lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila ma`naviyatining tutgan o`rnini alohidadir. Oila tarbiyasi bo`yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o`ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Insonning shaxs bo`lib shakllanishida, hayotda o`z o`rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo`lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiyligini davomiyligini ta`minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo`lib etishishiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`idir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda harbiylarni tayyorlashda ularni Vatanga, tanlangan kasbiga muhabbat, xalq tinchligi va osoyishtaligini saqlash yo`lida kuch-g`ayratni ayamaslik hissini shakllantirishda bilim yurti qo'mondonligi, professor o'qituvchilar tarkibi, komandir, fahriylar, ota-onalar hamkorligida katta chora-tadbirlar olib borish qadar harbiy tarbiyani har tomonlama oliy darajaga qo'yishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, ‘Pedagogika’. T: ‘O’qituvchi nashriyoti’. 2002- yil
2. Ona tili o‘qitish metodikasi / K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. -T: “NOSHIR”, - 2009
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o‘quvchilarni vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176- 180.